

Aholi va hududlarning seysmik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Fanlar akademiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarga bag'ishlangan brifing

Joriy yil 29-mart kuni, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agnetligida O'zR FA matbuot kotibi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyulda "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4794-sonli qarori ijrosiga bag'ishlangan brifing tashkil etildi.

Unda Fanlar akademiyasi tomonidan mazkur qaror doirasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida tanishtirib o'tildi:

1. "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ishlab chiqilib, regulation.gov.uz portalida muhokamadan o'tkazilib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasida qayta umumiylashtirish muhokama qilinmoqda;
2. Fanlar akademiyasi yetakchi olimlari hamda boshqa tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda 2030-yilgacha bo'lgan Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini rivojlantirish kontsepsiysi tayyorlandi hamda hozirgi kunda tegishli tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilmoqda.
3. Vazirlar Mahkamasi huzurida Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi.
<http://academy.uz/uz/news/seysmologiya-inshootlarning-seysmik-mustahkamligini-va-seysmik-xavfsizlikni-taminlash-sohasidagi-ilmiy-tadqiqotlar-uchun-tanlov-elon-qilindi>
4. Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti, Seysmologiya instituti va Qurilish vazirligi bilan birgalikda "Bino va inshootlarni elektron texnik pasportlashtirish uslubiyoti" ning o'zbek va rus tillaridagi nusxalari ishlab chiqildi. Elektron texnik pasportlarni shakllantirishdan asosiy maqsad - seysmik faol hududlarda foydalanishda bo'lgan bino va inshootlarning seysmik mustahkamligini o'rganish, sodir bo'lishi kutilayotgan zilzilaga tayyorgarlik ko'rish va uning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida bino va inshootlar bo'yicha zarur ma'lumotlarni o'zida aks ettirish hamda ulardan foydalanishga imkoniyat yaratishdan iborat.
5. Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti olimlari tomonidan xususiy turar-joy binolarining zilzilabardoshligini ta'minlash bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi.
<http://academy.uz/uz/news/xususiy-turar-joy-binolarining-zilzilabardoshligini-taminlash-boyicha-uslubiy-qollanma-ishlab-chiqildi>
6. Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti olimlari tomonidan suv va gidroenergetika inshootlarining seysmik holatini baholash bo'yicha ekspress uslub ishlab chiqildi.
<http://academy.uz/uz/news/endi-togonlar-mustahkamligi-ekspress-test-tizimi-yordamida-olchanadi>
7. Seysmologiya instituti tomonidan qurilish maydonlarining seysmik darajasini aniqlash uchun grunt sharoitlarining seysmik modellarini ishlab chiqish va ularni amaliyatga joriy etish mexanizmini yaratish ishlari davom ettirilmoqda.

Shuningdek, kuchli zilzilalar (o'rta va qisqa muddatli, makon va zamon bo'yicha) to'g'risida darak beruvchi majmualar tayyorlanishining yangi modelini yaratish va zilzila namoyon bo'lishi qonuniyatlarini aniqlash, yer qobig'idagi lokal seysmik faol tektonik yoriqlarning texnogen kuchlanganlik va deformatsiyalanish holatini baholaydigan miqdoriy modellarni ishlab chiqish kabi yo'naliishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, seysmogen zonalarning seysmologik va seysmotektonik potentsialini baholash

metodikasini takomillashtirish asosida Markaziy O'zbekiston hududining mukammal seysmik rayonlashtirish (MSR) xaritasi ishlab chiqilmoqda.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, Seysmologiya instituti olimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi hamda Toshkent zilzilasiga 55 yil to'lishi munosabati bilan 77 ta xaritadan iborat O'zbekiston atlasini yaratish bo'yicha ishlar yakuniga yetkazildi va Atlas shu yilning may oyida chop etishilishi rejalashtirilgan.

"O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorning qabul qilinishi mamlakatimizda seysmik xavfning oldini olish, aholi va hududlarni seysmik xavfdan himoya qilish tizimini doimiy takomillashtirib borish va sohada aniq maqsadlarga yo'naltirilgan dasturlarni amalga oshirish ishlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.